**A.Qodiriy nomidagi Jizzax deavlat Pedagogika Instituti Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bitiruvchisi Duvlanov Elyor tomonidan "Oilada shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsi shakllanishiga ta'siri" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishiga**

**ILMIY RAHBAR XULOSASI**

Bolaning barkamol inson masalasiga alohida e'tibor bergan holda yurtboshimiz I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlab o'tadi : ,, Bolaning ongini asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak , aynan ana shu davrda uning qalbiga oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi . Xalqimizning ,, qush uyasida ko'kganini qiladi " degan dono maqoli , o'ylaymanki , mana shu azaliy hyaqiqatni yaqqol aks ettiradi.

O'smirlarning shaxslararo munosabatlarning shakllanish bosqichlarii , tarkibin va rivojlanishning o'ziga xos tomonlarini o'rganish va zarur vaqtda kerakli psixologik- pedagogik choralarni ko'rish muhim. Bunan tashqari bolalarning jamoadagi o'yin, o'qish va mehnat faolyatining samaradorligi shu jamoa a'zolari o'rtasdagi o'zaro munosabatlarning qandayligiga bog'liq.

Shu bois Duvlanov Elyor "Oilada shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsi shakllanishiga ta'siri" mavzusi xozirgi kunda dolzarbligi bilan ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ish kirish , uch bob, oltita paragraph, umumiy xulosa va tavsiyalardan, 50 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Talaba sharq allomalari asarlarida muomala va muloqot masalalari, shaxslararo munosabatlar muammosining o'rganilganlik xolati to'g'risidagi

ma’lumotlarini birnchi bobda yoritib bergan.

Tadqiqotning ikkinchi bobida muloqot shaxslararo munosabatlar komponenti sifatida , Shaxslararo munosabatlarnig psixologik xususiyatlarini mpirik o’rganilish tadiqotlaridn olingan natijalar tahlili keltirib o’tilgn.

Ko’zlagan maqsadga erishilgan va ish yakunlangan.

Ayrim kamchiliklar yani orfografrik va imloviy xolatlarni inobatga olmaganda ishni ijobiy baholash mumkin.

Kelajakda yosh avlodni tarbiyalshda mas’ulyatli kadrlardan biri bo’lib, vatanimizga xizmat qiladi degan ishonch bilan Duvlanov Elyorning bitiruv malakaviy ishini tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:** **p.f.n, dots. I. Xaydarov**

**A.Qodiriy nomidagi Jizzax deavlat Pedagogika Instituti Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bitiruvchisi Duvlanov Elyor tomonidan "Oilada shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsi shakllanishiga ta'siri" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishiga**

**T A Q R I Z.**

Shaxslararo munosabat psixologiyasining ontoginetik rivojlanish bosqichi bilan bog'liq muammoga bag'ishlangan va uni tatqiq etish bugungi kun uchun muhim**.**

Bitiruv malakaviy ishni rasmiylashtirish talablariga mivofiq , muammoning mazmuniga mos tarzda bo'limlar shakllantirilgan va tadqiqot natijalari yoritilgan.

Muammo to'g'ri tanlangan har bir bob o'zinig mazmuniga mos tahlillarga ega boblar bo'yicha xulosalar chiqarilgan, tavsiyalar ishlab chiqilgan, bitiruv malakaviy ishni yaxlit strukturaga keltirishga erishilgan.

Muammoning psixologik adabyotlarda o'rganilishida foydalanilgan aabiyotlar xavolasiga jiddiy e'tibor qaratilmagan, ishnig umumiy xulosasi qisqa va soda bo'li9b qolgan, adabiyotlarni rasmiylashtirishda betartiblikka yo'l qo'yilgan.

O'smirlarning shaxslararo munosabatlarning shakllanish bosqichlarii , tarkibin va rivojlanishning o'ziga xos tomonlarini o'rganish va zarur vaqtda kerakli psixologik- pedagogic choralarni ko'rish muhim. Bunan tashqari bolalarning jamoadagi o'[yin , o'qish va mehnat faolyatining samaradorligi shu jamoa a'zolari o'rtasdagi o'zaro munosabatlarning qandayligiga bog'liq.

Shu bois Duvlanov Elyor Oiloada shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsi shakllanishiga ta'siri " mavzusi xozirgi kunda dolzarbligi bilan ahamiyatga ega.

Adabiyotlar muammonig mazmuniga mos keladi, rus tilidagi adabiyotlarni rasmiylashtirishda imlo hatolari mavjud, adabiyotlar rasmiylashtirish talablariga

e’tibor qaratilmagan , Respublikamizda amalga oshirilgan muammoga daxldor ilmiy ishlar adabiyotlar ro’yhatidan o’rin olmagan.

5140800-Pedagogika va psixlogiya bakalavriat ta’lim yo’nalishi bakalavri Duvlanov Elyor “Oilada shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsi shakllanishiga ta’siri” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yakunlangan , uning yutuq va kamchiliklarini inobatga olib, ijobiy bahoga baholanishni tavsiya etish mumkin.

**Taqrizchi :** **JDPI “Maktabgacha ta’lim nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi mudiri**
**dots. A.Meliboyev**.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
"PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA" KAFEDRASI

"Himoya qilishga ruxsat beraman"
Pedagogika-psixologiya fakulteti

Dekani v/b__________dots.R.Abdurasulov
"____" __________________ 2014 y.

51408000 – Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

# Oilada shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsi shakllanishiga ta'sir

mavzusida bajarilgan

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajaruvchi: Duvlanov Elyor**

**Ilmiy rahbar: p.f.n, dots I.Haydarov**

Ishni himoyaga tavsiya etaman **p.f.n, dots I.Haydarov** ___________
(ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

BMI "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi ___ sonli yig'ilish qarori bilan
( ____, __________ 2014 y) himoyaga tavsiya etilgan
**Kafedra mudiri:.............**
(ismi va sharifi) (imzo)

**Jizzax – 2014**

## MUNDARIJA

**KIRISH** ……………………………………………………………………

**I. Bob. SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MUAMMOSI ASOSIY PSIXOLOGIK KATEGORIYA SIFATIDA TAHLIL ETILGANLIGI.**

1.1 Sharq allomalari asarlarida muomala va muloqot masalalari.

1.2 Shaxslararo munosabatlar muammosining o'rganilganlik holati.

**Bob bo'yicha xulosalar** ……………………………………………………

**II. O'SMIRLARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI EKSPERIMENTAL O'RGANISHNING METADOLOGIK VA METODIK ASOSLARI.**

2.1 Muloqot shaxslararo munosabatlar komponenti sifatida.

2.2 Shaxslararo munosabatlarni o'rganishga qaratilgan metodikalar tavsifi.

2.3. O'smirlarning shaxs sifatlari shaxslararo munosabatlar determinanti sifatida.

**Bob bo'yicha xulosalar**…………………………………………………..

**Xulosa va tavsiyalar**……………………………………………………

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**……………………………………..

**Ilovalar** ……………………………………………………………………

# KIRISH

Mustakillik tufayli o'z taraqqiyot yulidan borayotgan O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan, bo'layotgan vokea-hodisalarga erkin munosabat bildiradigan, ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan muloqotning sir-asrorlarini o'rgangan insonlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmokda. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Viz farzandlarimizning fakat jismoniy va ma'naviy soglom usishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bulgan, uygun rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib, voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz"[1].

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda «Ta'lim to'g'risidagi Qonundan ko'zlangan maksad jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirshdan iborat. Ushbu muammoni xal etish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, mustaqil fikrlovchi raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislarga bugungi kunda extiyoj katta.

Prezidentimiz I. A.Karimov O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq XVI sessiyasida «Viz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigai, atrofida sodir bo'layotgan vokea-xodisalarga mustakil yondashadigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak» deb ta'kidlaganlar. Bugungi kunda o'z maksadlarimizga erishish uchun yoshlarimiz ongiga bunyodkor g'oyalarni singdirish, o'tmish va buyuk kelajak xaqidagi fikrlarini kengaytirish. tarix bilap faxrlannsh hnssini uyg'otish, yangicha tafakkurni shakllantirish, bozor iktisodiyotiga mos keladigan muloqot madaniyatinn tarkib toptirishimiz lozim.

Insoniyat ta ri x i y - i j t i m o i y va ontogenetik tarakkiyotining hamma bosqichlarida shaxslararo munosabatlar o'ta muhim muammo bo'lib

xisoblanadi. Jamoaning yashashi, rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi uchun jamoa a'zolarining o'zaro aloqa o'rnatilishlari-muloqotga kirishishlari kerak. Muloqotga kirishish, uning kechishi va natijasi ko'pincha muloqotta kirishgan shaxslarning bir-birlariga qanday munosabatda (ijobiy, salbiy, . befark) bo'lishlariga bog'liq. Insoniyatning ming yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, birgalikda yashash, ishlash va hamkorlikda faoliyat ko'rsatish uchun katta va kichik guruhlarda psixologik muxitning ijobiy bo'lishi uchun shaxslararo munosabat yetarli darajada shakllangan va rivojlangan bo'lishi muhim. Aynan shuning uchun xam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov yangi jamiyat barpo etishda «Ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga va ularii bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga barham berish bilan jamiyatni yangilash va o'zgartirish zarur» ligini ta'kidlab o'tgan elilar. Ko'pincha bu muammoning negizida shaxslararo munosabatdagi kamchiliklar, bir-birini tushunmaslik yoki tushunishni istamaslik yotadi. Mamlakatning nqtisodiy. siyosiy va ma'naviy rivojlanishi uchun barcha kasb egalari muloqot va shaxslararo munosabat sohasida yukorp malaka va tajribani egallashlari zarur. Xar qanday malaka va tajriba, ayniqsa, shaxslararo munosabat tajribasi dastavval oilada, bog'chada va kichik maktab yoshida o'zlashtiriladi.

Demak, o'smirlarning shaxslararo munosabatlarining shakllanish boskichlarini, tarkibini va rivojlanishning o'ziga xos tomonlarini o'rganish va zarur vaqtda kerakli psixologik-pedagogik choralarni ko'rish muhim. Bundan tashqari bolalarning jamoadagi o'yin, o'kish va mehnat faoliyatining samaradorligi shu jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qandayligiga bog'liq. O'quvchilar jamoasi dars yoki darsdan tashqari jarayonda birgalikda boshkaradigan har qanday vazifann amalga oshishiga jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qanchalik yaxshi tashkil etnlganligi, jamoaning hamkorlik va jinslik darajasi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi bir-birini tushunish va boshqa ko'pgina omillar ta'sir etadi.

O’smirlik davrida xam yosh davrlari o’rtasidagi eng murakkab mehanizmlar yuzaga keladigan davr hisoblanadi. O’smir jismoniy o’sishi bilan birgalikda tafakkurning rivojlanishi ongli ravishda ko’plab bilim va axborotlarni qabul qilishida takomillashadi. O’smirlik inson shaxsining kamol topishida alohida o’rin egallaydi. U inson kamolotining muhim bosqichi hisoblanadi. O’smirlik davrida ahamiyatga ega bo’lgan psixologik o’zgarishlar ro’y beradi.

O’smirlik davri muayyai ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur galim-tarbiya ta’sirida barqaror mustahkam bo’lib qoluvchi hislatlar namoyon bo’ladi. O’smir kamolotiga erishgai sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo’la boshlaydi, aslida keskin qayta qurish sodir bo’ladi. Bu davrda mustaqil tafakkur, dunyokarash, e’tiqod, o’zlikni anglash. baholash shakllanadi.

O’smirlardagi shaxslararo munosabatlarni o’rganishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar mavjud. Shular sirasiga I.V.Straxov. L.I.Umanskiy, I.S.Polonskiy va h.k.lar kiradi.

_ I.V.Straxov o’smirlarning o’rtoqlik va do’stlik o’zaro munosabatlarini batafsil tadqiqot qilgan.

Shuni nazarda tutish kerakki. o’smirlarni jamoaga jalb qilish ko’pincha shunday ifodalanadiki, ular ko’cha va hovli ulfatlarini tashkil qiladilar. Tasodifiy yuzaga keladigan guruhlarda qatnaщadilar. Psixolog L.I.Umanskiyning ma’lumotlariga ko’ra, u tekshirishga o’smirlariig 84% bo’sh vaqtlarni ana shunday guruhlarda o’tkazganlar. N.S.Polonskiy tomonidan o’smirlarniig stixiyali guruhlarini o’rganish yuzasidan o’tkazilgan maxsus tadqiqotlarda malum bo’lishicha. o’smirlarn, kamida 81 85% stixiyali, maktabdan tashqari guruhlardan o’tadi, Muallif shunday asoslangan xulosa chiqaradi. O’zbekistonda ham o’smirlarning o’zaro munosabatlari tahliliga bevosita yoki bilvosita taalluqli tadqiqotlar mavjud ( E G’oziyev, Ye.U.Shoumarov, B.Umarov, F.I.Xaydarov, V.M.Karimova va x.k.)

Yuqoridagi ilmiy manbaalar tahliliga ko'ra bizlar xam **o'z** tadqiqiy ishimizni uyushtirishga va o'smirlarda shaxslararo munosabatlarning psixologik asoslarini o'rganishga qaror qildik.

**Tadqiqot maqsadi** - O'smirlar kamolotida shaxslararo munosabatlar tizimi strukturasini o'rganish.

**Tadqiqot obyekt»** - JDPI qoshidagi **№1** Akademik liseyi **1-11**-kurs o'quvchilari.

**Tadqiqot vazifalari**

-Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili;

- tadqiqot metodlarini aniqlash;
- shaxslararo munosabatlari o'rganish;
- natijalarni taxlil kilish.

**Tadqiqot farazi** — Tahminimizcha, o'smirlarning shaxslararo munosabatlar tizimi ko'p jihatdan ularning shaxs sifatlari, ularning jinsiy farqlari bilan belgilanishi mumkin.

**Tadqiqotning metodologik asosi** — Tadqiqotning metodologik asosini belgilashda O'zbekiston Respublikasiniig «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning xalk ta'limi va yoshlarni tarbiyalash haqidagi fikrlari hamda isixologiyada shaxs tushunchasi: kompleks yondashish '(B.G.Ananyev), funksional tizimlar konsepdiyasi (P.K.Anoxin), determinizm tamoyili (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev), tizimli yondashish (B.F.Lomov), faoliyat va ong birligi tamoyillari asos qilib olindi. Bundan tashqari Sharq allomalarining o'z asarlarida keltirgan ilg'or fikrlardan foydalanildi.

**Tadqiqot metodlari:**

1. Suxbat:
2. Kuzatish;
3. Shaxsning muloqotchanlik va tashkilotchilik qobiliyatini aniklash testi
4. Shaxslararo munosabatlar interpersonal tashhisining

modifikasiyalashtirilgan testi (T.Liri - Sobchik).

5.Matematik-statistik metodlar

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati** — O’rganilgan adabiyotlar va o’tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan olingan nazariy ma’lumotlar, psixologiya fani soxalaridan bo’lgan yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya kabi fanlarni nazariy manbalar bilan boyitishga xizmat kiladi.

**Tadqiqotning amaliy axamiyati** - Ilmiy tadqiqot natijalaridan va ular ga asoslangan ilmiy tavsiya va xulosalardan o’smirlarning o’zaro munosabatlari masalalari bilan shug’ullanadigan mutasaddi xodimlarinnng faoliyatida, oliy ukuv yurtlari, akademik lisey, kasb-щunar kolleji talabalariga psixologik bilimlarni targ’ib qilishda va psixoterapevtik vositalar bilan ta’sir o’tkazish ishlarini amalga oshirishda unumli qo’llash mumkin.

## 1-BOB. ShAXSLARARO MUNOSABATLAR MUAMMOSI ASOSIY PSIXOLOGIK KATEGORIYa SIFATIDA TAXLIL ETILGANLIGI.

### M.Shark allomalari asarlarida muomala na muloqot masalalari.

Shark mutafakkirlarining ilmiy merosida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa ular muloqot, muomala masalasiga katta e'tibor berganlar. Zero yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan, ularni ijobiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo'lganligi uchun xam mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar. Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muxammad Koshgariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Amir Temur, Jomiy, Abdulla Avloniy va shu kabi mutafakkirlarning qator asarlarida muloqot, muomala masalalariga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Ma'lumki qadimgi manbalardai hisoblangan Zardushtiylik dinida xam muomala muloqot masalalari atroflicha tahlil kilishgan. Zardushtiylik inson kamolotila bilimning kuchiga qattik e'tiqod qiladi va oqibat natijada bilimli kishi yutib chiqad deb hisoblaydi Avesto'da inson o'z mehnati tufayli barcha yomonliklardan yovuzliklardan qutilishi mumknn, degan ulug' g'oya yotadi. Unda ahlokiylikning asosi -saxovatlilik deb kuzatilgan. Ahlok - yaxshi fikr. yaxshi so'z, va amaliyot birligidan iborat deyilgan. Yaxshi fikr deganda yaqin kishisiga mehribon
bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish. yovuzlikka qarshi kurashish, kishilarning baxt-saodatini muhofaza qilish. axilik va totuvlikda yashashga iitilish ruxidagi niyatlar va fikrlar tushunilgan. Bu fikrlarni' kishi niyat
qilibgina qolmay, ular to'g'risida tinmay so'zlashishn va ularni amalga oshirishi shart, deyiladi "Avesto'da.

Quron niig ma'lum oyatlarn shirinsuxanlikka bag'ishlanadi. To'g'ri so'z va muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-koidadari Islomgacha xam

bo’lgan. Ammo faqat. Islomgina uning asl moxiyati. inson kamoloti, jamiyat tarakkiyotida naqadar katta axamiyatga ega ekanini yoritib bera oldi. Chunki kishilarda shirinsuzlik, madaniy muomala taraqqiy etgan mamlakatdagina amalga oshadi. Shirinso’zli insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko’rsatadi, obro’sini orttiradi, xurmatga sazovor qiladi. Shunga kura, “Kur’on” da xar bir inson shirinsuz bo’lishi, agar muloqotdagilar o’zaro shirinso’z bo’lmasa, dushmanlik sodir bo’lishi ta’kidlanadi. Boshka bir oyatda Alloh kishilarni so’zlashganda past ovoz bilan so’zlashga undaydi: “Kishilarga chiroyli so’zlar so’zlangiz” (“Bakara” surasi, 53-oyat).

So’zlashganda ochik yuzli bo’lish, ko’pollik qilmaslik, xushmuomala bo’lish odoblari hayotda tinchlik va baxt-saodatga yigitishiщda yorug yul sifatida talqin etiladi: “Alloh tomonidan bo’lgan bir marxamat sababli ularga (saxobalaringizga) yumshok so’zli bo’ldingiz. Agar ko’pol, qattiqqo’l bo’lganingizda edi, albatta atrofingnzdan tarqalib ketgan bo’lar elilar” (“Ol-i Imron” surasi, 159-oyat).

Haqiqatan xam so’zlashish madaniyata har bir inson uchun eng zarur bo’lgan,unga baxt-saodat, jamiyatga esa ravnaq keltiradigan muxim fazilatdir. Zero.davlat axamiyatiga ega bo’lgan diplomatik aloqalarniig amalga oshishi xam

elchilarimizning ana shu so’zlashish madaniyatini ne chog’lik o’zlashtirib olganligiga bog’liqdir.

“Kur’on”da insoning axlokiy kamolga yetkazishda yaxshi kishilar bilan xamsuxbat bo’lish katta axamiyatga ega, deb ko’rsatiladi. Bu hayotda yaxshilar bilan do’st bo’lishda yordam beradi, do’st-dushmanni ajratib o’ziga hamkor do’st

tanlashda madad beradi. “Van- n-jam” surasinnpg 24-oyatnda “Biznnng zikrnmizdan qochgan va faqat hayoti -dunyonigina istagan kimsalardai yuz. o’giring", deyiladi. “Kaxf” surasining 28-oyatida esa “Biz qalbini Bnznn zikr etiщdan g’ofil qilnb qo’ygan, havoyi nafsiga yigitgashgan va kilar ishi isrofgarchilik bo’lgan kimsalarga itoat emang!’-deya ta’kidlanib, axloqan

tuban kishilar bilan do’st tutinib, xato qilmaslikka undaydi.

Yaxshi kishilar bilan xam, yomon kishilar bilan xam muomala-mulokotda bo’lganda albatta uning o’ziga xos odob qoidalari bor. Islomda ruxsat so’rash va salomlashish odoblariga ham e’tibor beriladi. “Nur” surasiiing 27-28- oyatlarida bu borada aniq tavsiyalar berilganki, bu tavsiyalarga rioya qilish inson ma’naviy kamolotidan dalolat beradi.

Islomda salom alik olish xususida “Niso.” surasining 86-oyatida “qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar uida chiroylirok qilib alik olinglar yoki (xech bo’lmasa) o’sha iborani qaytaringlar”, - deyiladi.

Bunda yaxshi siyrat deganda yaxshi muomala, chiroyli hay’at - bu tashki ko’rinishni yaxshilab yurish, iqtisod - har bir xatti-xarakatda me’yorni ko’zlash nazarda tutiladi. Mazkur xilatlar Rasullulloxninp "Sizlarning uchta ishingiz uchun Alloh  Taolo rozi va uchta ishingiz uchun g’azablik bo’ladi: birinchisi, ibodatni Allohning o’zigigina

qilib, ibodatga boshqa narsalarni unga shernk qilmsligingizga; ikkipchisi, Allox Taoloning dini va Kur’oniga e’tiqod qilmog’ingizga; uchinchisn, Alloh Taolo sizga boshliq qilib qo’ygan kishiga xayrixoxbo’lmog’ingizga rozi bo’lsa, bular-bo’lmas gapni naql  qilishib yurmog’ingizga, ko’p surishtitavermaslik  yoki so’rashlik (gadoylik qilish) va molni noo’rin yerlarga sarf qilib zoye  qilmog’ingizga g’azablanadi”, - deganlarini isbotlaydi (206-bob. 242-xadis)

Imom al-Buxoriyning inson sifatlarn haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o’lim keltiruvchi fojia deb qoralanadi. u odamlarni to’g’ri so’zli bulishga, va’daga vafo qilishga da’vat etib, munofiqlik kishining uchta belgisi bo’lishini ko’rsatadi, ular: yolg’on gapirish,

vadaga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U odamlarni, ayniqsa, mo’min-musulmon kishnni haqorat qilishni gunoh, u bilan urishishni kofirlik deb biladi. U insonning kuch-qudrat, jismonan paxlavonlikda emas, balki jahl chiqqada o’zini tiya olishda deb hisoblanli. Uning uqtirishicha, baland tovush bilan o’riisiz kulish boshqalar diliga ozor

beruvchn hislatdir. Xalqqa yoqimli va ehtiromli bo'lib,' sazovor bo'lishni go'zap axloqlilik deb biladi alloma.

Sog'lom tanda sog' fikr bo'ladi, degan xalk maqoliga amal qilib, alloma yoshligidanok sog'liqni saqlashga, vaqtni bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi: "Ikki narsa borkim, ko'pchilik ularning qadriga yetmaydi: biri sog'liq ikkinchisi bo'sh vaqt".

M Qoshg'ariyning 'Devonu lug'atit turk" asarida "Odobning boshi til" iborasida esa hushxulqlikning talablaridan biri-odobning boshi til ekanligi, shirinso'z kishi martabaga ega bo'ladi degan ma'no yotadi Xalq- orasida g'iybatchi kishilarga nisbatan "Ilon' o'zining egriligini bilmay tuyaning bo'ynini egri deydi" maqoli qo'llanilgan. Inson o'zini ayab, yaxshi yeb ichsa, tez qarimasligi "Maishatlik odam tez qarimas" makolida ifodalangan "Alp chirikda, btlga tirikda-botir jangda-dono majlisda sinaladi"" akolida esa „nsonning qanday kishi ekanligi uning jasorati va oqilligiga bog'lik ekanligi nfodalangan.

"Yuziga qarama, arzam tila-yuziga qarama, fazilatini (ilmini, ahloqini) ista(tila) "maqolidan insonga hulq odobi, bilimiga qarab baho berilishi bayon etilgan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida barcha yaxshi ishlarning manbai ezgulik, yomon ishlarning asosoini essizlik nomlari bilan talqin etadi. U inson hayotida qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yoki yomon nom oladi, deydi.asarda olim barcha ezgulikning boshi til deb ыaraydi. Asarning bir bobi til odobi, uning foyda vazararlariga bag'ishlanadi.til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban xam ketishi mumkin, deydi. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri hushxulqlilik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z, deydi olim. Uning til haqida, so'z haqida aytgan fikrlarining har biri hikmatli so'zga aylanib ketgan. Kumush va oltin tugaydi, ammo so'z muomalaga kiritilsa, oltin va kumush qozoniladi, oz so'zlash, lekin ko'p tinglash kerak, hyech kim ko'p so'zlab olim yoki dono bo'lmagan, qizil til qora boshning yovi, avval o'ylab

keyin so'zlaщ kerak kabi ma'nolarni uning
Omonlik tilasang agar sen uzin g,
Tilingdan chiqarm a yarog'siz so'zing.
Qizil til qilar qisqa yoshli seni,
Omonlik tilasang avayla uni.
So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,
Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin.
Zexn ko'rki so'zdir, bu til ko'rki so'z
Kishi ko'rki yuzdir, bu yuz ko'rki ko'z.
kabi xikmatlarga aylangan fikrlaridan bilsak bo'ladi.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan xurmat va extiromni tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Xojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug' mansabdorlardan tortib, oila a'zolarigacha bir-biriga bo'lgan muomala- munosabat masalalarini xam hayotiy misolar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansab dorlarning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarning o'z xo'jalar turli ijtimoii guruh a'zolarining bir-birlariga, oilada oila a'zolarining bir- birlariga muomala madaniyatining eng oddiy ko'rinishlarigacha tasvirlab kishining ko'z oldida yaqqol namoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyada uning tug'ulganidan boshlab hulk-odob qoidalarini, bilim va xunarni o'rgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning hatti-xarakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo'ladi.

Olim ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi hulk-odob qoidalari xaqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi talablari, qoidalarini xam tavsiya etadi.

Kaykovus uziniig "Kobusnoma" asarida axloklidikning birinchi belgisi, suxandonlik deb biladi. U (suxanguylik) notiklikda rost suzlash kerakligini ta'kidlaydi. U so'zlarni to'rt xilga bo'lgani kabi odamlarni xam to'rt hilga bo'ladi. Birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi.

Bular olimlar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarga o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini xam bilmaydi, uyquda yashagandek, ularii "uyg'otish" kerak. Turtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ulardan qochish kerak, deydi.

So'zlarning esa birinchi xili biliimaydi va aytilmaydi; ikkiichisi aytiladigan va biladigan; uchinchisi, xam bilinadi, xam bilishga zarurati yo'k ammo aytsa bo'ladi. To'rtinchisi, bilinadigan va aytiladigan deydi. Eng yaxshisi, to'rtinchisi, ya'ni bilinadigan va aytiladigani deydi. So'zlaganda andishatik bo'lish, sovuq so'zlik bo'lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so'zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta'kidlaydi.

Jomiy nutk madaniyatiga shirinsuxanlikka ayniksa, yosh avlodniig katta e'tibor, berishi kerakligini ta'kidlaydi. Uningcha odam o'ylab gapirishi boshqalarning fikrini ko'prok eshitishi lozim, o'ta sergaplik kishniniig aqlsizlikdan dalolat beradi.

Jomiy yoshlarda sakiylik shirinsuxanlik kamtarlik qanoat do'stlik aqlliklik rostguylik mexnatsevarlik kabi xislatlarni snngdirmokchi bo'ladi. bu fazilatlarni ko'klarga ko'tarib maqtaydi. Jomiy nutq madaniyatiga shirinsuxanlikka ayniqsa yosh, avlodniig katta e'tibor berishi kerakligini ta'kidlaydi. Uningcha, odam o'ylab gapirishi, boshqalarning fikrini ko'prok eshitishi lozim, o'ta sergaplik kishining aqlsnzligidan dalolat beradi :

Tilingni betinim qilma so'zga band.
Tinglashga kuloging shaylagil xarchand.

Jomiy xar bir so'zni o'z vaqtida so'zlashni o'ylab gapirish lozimligini ta'kidlaydi. U o'z gapida bema'ni so'zlarni ishlatuvchi kishilarni tanqid qiladi, ayrim kishilarning nutkida ma'ыo yo'qligini gaplarida xata ko'pligini aytadi. Lekin ayni vaktda shunday shaxslar borki, ularning nutqi tashki tarafdan juda chiroyli lekin ularning qilgan ishlari, xatti- xarakatlari, fe'l-atvori yomon bo'lib, gapirgan gaplariga to'g'ri kelmaydi. Jomiy shirinsuxanlikning eng eng yaxshi alomatlaridap biri rost gapirishdir, kishi

o’z gapida yolg’onni ishlatmasligi, rostlikni o’ziga bezak qilib olishi lozim, deb o’ylaydi. U yoshlarni to’g’ri bo’lishga king’ir yullardan yurmaslikka tili bilan dili doimo bir xil bulishga chakiradi:

So’z aytsang rostlikni aylagil odat,
Kidirma rostlikni yaxshirok ziynat.
Rostlikdan yaxshirok ziynatni kachon,
Kayda ko’rdi ekan biror bilimdon?

A.Avloniy o’z ona tilini mukammal bilish, xar bir so’zni o’z o’rnida ishlatish, milliy adabiy tilining taraqqiysi uchun jonkuyarlik qilish zarur, - deydi. “Xar bir millatning dunyoda borligin ko’rsaturgon oynai xayoti, tili va adabiyotidur. Milliy tilni yukotmok millatning ruxini yukotmokdir. X,ayxot! Biz Turkistonliklar milliy tilni saqlamok, bir tarafda tursin kundan-kun unutmok va y u kot m o kladu r m i z. T'ilimiznish yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik kilub, bir chetiga rus tilini yopishtirmokdadurmiz. Durust, rus tilini bilishimiz kerak, lekin o’z yerinda ishlatmok va so’zlamok lozimdur.zigir yogi solub. mokichiri nishirgan kabi qilub, aralash-kuralash kilmok tilnini ruxini buzadir”.

… “Bobolarimizga yetushg’on va yarag’on mukaddas til va adabiyot bizga xam kamlik qilmas. O’z uyimizni qidirsak va axtarsak, yukolganlarini xam topamiz … yukolgan yukolsin o’zi boshimga tor edi,..- deb Yevropa kalpog’ini kiyib,kulgu bulmok zur ayb va uyatdur”.

Avloniy so’zlashuv odobiga xam aloxida e’tibor beradi. U so’zning kadr-kimmatini belgilashdagi moxiyatiga yukori baxo berib, “So’z insonniig daraja va kamolini, ilm va fazilini o’lchab ko’rsatadurg’on tarozisidur. Aql soxiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va kuvvatini, qadr va qiymatini so’zlagan so’zidan bilurlar", -deydi.

Xamza Xakimzoda Niyoziy o’zining asarlarida insoniy muomala muloqot borasida qator fikrlarni ilgari suradi. Shuningdek “Agar ota-onalarimiz, - deb yozadi Xamza, - boshda yaxshi tarbiya qilgan bo’lsangizlar, tilimizni yolgondan, qulog’imizni fisqu adovatdan qo’limizni

xiyonatdan… shu fe’llardan mumkin kadar ehtiyot qilib, o’zimizni yoshlik yolgizlikdan qiladigan yigitinchokliklarimizga iltifot kilmay, urishib, so’kib, maqtab topshirib ilm otalik: saodati…jaxonga yetadigai bir raxnomiy xakikatga tanish va oshna qilgan bo’lur edilar. Biz butui shum va yomon bo’lmas va o’zlari bu kadar… minglarcha pushaymon bo’lmasdilar ”.

Xamza Xakimzoda bolalarni to’gri so’z rostguy qilib tarbiyalashni uktiradi, to’g’rilik to’g’ri so’zlik eng yaxshi fazilat deb, deb xisoblaydi. U aldamchilikni yolgon so’zlikni yomon illat sifatida koralaydi. Uning ta’kidlashicha “Sodik” to’g’ri joyda so’zga aytilur, To’g’ri so’zli kishilar har e’tiborli, dili, yuzi ravshan bulur. To’g’ri so’zli kishilar…, xar doim izzat va xurmatda bo’lurlar. To’g’ri so’z sharafidin najot topmoqqa zo’r ishonchlik bo’lur, deydi.

**1.2. Shaxslararo munosabatlar muammosining o'rganilganlik xolati.**

Shaxslararo munosabatlar insoniyat xayot faoliyatining zarur sharti bulib, shaxsning yetuk inson sifatida shakllanishida, uning psixik funksiyalari, jarayonlari, psixik xususiyatlar rivojlanishidagp axamiyati beqiyosdir. Ayniksa, bolaning psixik taraqqiyotida uning tengdoshlari bilan o'zaro munosabati va muloqotining ta'sirini xech narsa bilan teiglashtirib bo'lmaydi.

Bolalik davrida tengdoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarniig muximligini amerikalik mashxur bolalar vrachi Benjamin Spok xam ko'rsatib bergan  Uning fikricha, katta yoshdagi kishining oklada, shlda xamkorlik kila olishi boshkalar bilan kanchalik chikishib ketishi, shu kishining bolalik chog'ida tengkurlari, boshqa bolalar bilap qanchalik xamkorlik qilgani, chiqishib uynaganiga bog'liq. Bol ada atrofdagilar, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarga kuchli extiyoj mavjud bo'lib, bu munosabatlar yordamida bola muxim hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olam, vokelik, jamiyat hakida bilim to'playdi, o'zini tengdoshlari bilan taqqoslash natijasida o'ziga va boshqalarga baxo berishga o'rganadi. Tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarda bola o'zining psixik qiyofasini go'yoki «kuzgu»da aks ettiradi, o'zaro munosabatlarda bola jamoada yashashga o'rganadi.

O'kuvchilarning  dars va darsdan tashkari jarayonlarda o'zaro munosabatlarniig qanday kechishi, sinf jamoasining ta'lim va. tarbiyasida o'ta muxim rol o'ynashi V .A. Suxolisnkiy . A.V.Mudrik (29). S.V.Konlratыv L.I.Novikovlarning (34) izlanishlarida o'z aksini topgan.

Mashxur rus pedagogi V.A. Suxolisnkiy o'z asarlarida bolalar jamoasini shakllantirish, bola shaxsini rivojlantirish, bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarniig taraqqiyotiga katta e'tibor bergan. V.A. Suxolisnkiy bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarniig ko'p qirrali va to'la konli bulishi uchun ularni boshlangich sinflardan boshlab jamoa bo'lib mehnat qilish, o'kuv va boshqa faoliyatlar davomida bir-biriga yordam berishga o'rgagash

ijobiy samara berishini ta'kidlaydi. Bunda o'kuvchilarning birgalikdagi tabiat ko'yniga sayoxatlari, birgalikda qiziqarli kitob o'kishlari, birga qushiq kuylashlari va birga o'ynashlari ularni bir-birlariga yaqinlashtirishi, muloqotini boy qilishini unutmaslik lozim.

**A.V.** Mudrik (29) turli yoshdagi maktab o'quvchilarining o'zaro muloqoti hamda muloqot turlarining tavsifnomasini tuzish bilan muloqot va munosabatlarning jamoani, o'kuvchi shaxsini shakllantirishning pedagogik yunalishlarini ko'rsatib beradi. Tadqiqotchi o'kuvchilarning o'zaro munosabatlari va muloqotlarining rivojlanishida xar bir yosh bosqichi uchun alohida o'tkaziladigan pedagogik tadbirlarning shakli va uslublari xaqida fikr yuritadi. Lekin jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bu munosabatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar, ayniksa, boshlang'ich sinflardagi munosabatlarga va uning o'ziga xos xususiyatlariga kam e'tibor beriladi.

L.I. Novikovning (34) monografiyasida o'quvchi shaxsini'sinf jamoasi ta'siri bilan tarbiyalash imkoniyatlari, jamoaning tarbiyadagi roli haqida fikr yuritilgan bo'lib, sinf jamoasi yaxlit tizim sifatida, uning maqsad va vazifalari, ya'ni ijtimoiy va tarbiyaviy vazifalari xamda sinf jamoasini boshkarishning optimal yo'nalishlari bayon qilingan. Ammo tadqiqotchi shaxslararo munosabatning ko'prok nazariya tomoniga e'tibor qaratib, masalaning amaliyot jihatlarini yoritib bermagan.

B.F. Lomov bilish jarayonida muloqot va munosabatning ahamiyatini ko'rsatib. bu jarayon "subyekt-obyekt" darajasida emas, balki "subyekt-subyekt darajasida amalga oshganda yuqori samara berishiga diqqatni qaratadi. B, F, Lomov raxbarligida o'tkazilgan tadqiqotlarda shaxslararo munosabat va muloqotning bilish jarayonini kuchaytirishiga sabab topshiriqlarni bajarish davomida tekshiruvchilarning o'zaro ma'lumot almashishlari, faoliyatga birgalikda reja tuzishlari xamda bir-birlarini nazorat kilib borishlari ekanligi aniklandi. Bunday o'zaro xamkorlik natijasida so'zlarni xotirada ixtiyoriy eslab kolish 97%ga, sonlarni eslab

kolish 78% ga o'sgan. Kolominskiy (22) o'kuvchilar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar tizimini asosan sosiolatriya usuli bilan turli muhit sharoitida ( sinfda, sinfdan tapщarida, maktabdan tashkari faoliyatlarda) tekshirgan. Shaxslararo munosabatlarda xar bir shaxs bir yoki bir necha rollarni bajaradi. Yuzaki qaraganda buni aniqlash ancha murakkab, faqat jamoada o'tkazilgan maxsus tekshirishlar yordamida guruhdagi “rad etilgan". “yakkalanib qolganlar”ni aniqlash mumkin.

O'kuvchilar jamoasida “rad etilgan” va “yakkalanib qolganlar" toifasiga kirgan o'kuvchilar xam aslida tengdoshlari bilan doimo muloqotda bo'ladilar. Tekshirishlar natijalarini chuqur taxlil kilish faqat ushbu o'kuvchilar birinchidan, o'zlari istagan tengdoshlari bilan muloqot va munosabatlarga kirisha olmasligi; ikkinchidan, muloqot tashabbusi, faqat izolyasiyadagi” o'kuvchidan chiqishini ko'rsatadi. Bunda ikkala vaziyat xam bola shaxsining barkamol shakllanishiga salbiy ta'sir etadi.

A.A. Bodalevning fikricha, kishilar jamoa bo'lib mexnat kilishlari. ta'lim olishlari, san'atda, ommaviy axborot vositalarida faoliyat ko'rsatishlari uchun bir-birlariga extiyoj sezadilar va bunga intiladilar.

Lekin faoliyat davomida ba'zilar xamkorlik, ba'zilar musobaqa. ba'zilar beparvolik, boshqalar esa qarshilik munosabatlarini namoyon qiladilar. Jamoa normal faoliyat ko'rsatishi uchun esa jamoada psixologik vaziyat osoyishta, xamjixatlik, do'stlik va bir-biriga nisbatan xayrixoxlik zarur. Jamoada bunday iqlimni tashkil etish uchuy sinfda o'qituvchining pedagogik maxorati, ishlab chiqarishda raxbarlarning boshqaruv san'ati kobiliyati katta ahamiyat kasb etadi. Lekin bu omillar har doim xam xal qiluvchi rol o'ynamasligi mumkin.

Kishini kishi tomonidan shaxs sifatida idrok etilganda, shaxs boshqa shaxsni subyekt sifatida o'rganganda (boshqa shaxsga obyekt sifatida qaraganda) boshqa shaxsga nisbatan qiziqish, befarqlik yoki iafrat hissini sezishi mumkin (A.A.Bodalev. 22). Subyekt sifatida u o'z oldiga ma'lum vazifalar qo'yadi va o'z fikrini hamsuxbatga o'tkazish uchuy muloqot

jarayoniga ta’sir etishga, uni boshkarishga xarakat qiladi, Bir vaqtniig o’zida bu shaxs o’zi bilan munosabatda bo’layotgan kishiga nisbatan bilish-o’rganish obyekta hisoblanadi, ya’ni munosabatlar vaqtida kimningdir ta’siri ostida bo’ladi.

A.A.Bodalev kishilarni obyekt va subyekt sifatida ta’riflar ekan, o’zaro munosabatlarda o’zaro moslik yoki mos kelmaslik ayeosiy, x,al kiluvchi omil ekinligiga e’tibor kratadi. O’zaro munosabatlarga shaxsning intellekt darajasi, hissiy dunyosi, xarakteri, irodasi. dunyoqarashlari ta’sir etadi.

O’smirlar va ilk o’spirinlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar boshqa yosh bosqichlaridan ko’ra, murakkab bo’lib, I. Konning fikricha, bu yosh bosqichda qarama-qarshi tendensiya kuzatiladi. Bir tomondan o’smirlarda, ilk uspirinlarda yolgizlikka,. yakkalikka, mustakillikka (kattalarning nazoratidan chetga chikishga intilish) istak katta bulsa, ikkinchi tomondan ularda albatta kandaydir jamoaga kushilish, tengdoshlar pruxidan urin olishga extiyoj kuchli bo’ladi. I.Kon tadqnqotlari o’g’il va qiz bolalar o’rtasidagi shaxslararo munosabatlar va muloqotniig kechishi bir xil emasligini ko’rsatdi. Qizlar bilan qizlar, o’g’il bolalar bilan o’g’il bolalar o’rtasidagi va qarama-qarshi jinsdagi bolalar o’rtasidagi munosabatlar bir-biridan farq qiladi. Bir qarashda turli yosh davrlardagi o’g’il bolalarda muloqot va munosabatlar kizlarnikiga qaraganda faolroqdek ko’rinadi. O’g’il bolalar qiziqarli o’yin uchun, xatto, o’ziga yoqmagan bola bilan ham o’ynashga tayyor, lekin o’yin o’z xarakteriga ko’ra ko’prok musobaqa, tortishuv tarzida janjalli kechishi mumkin. Qizlarda esa o’zaro munosabatlar passivroq kechadi, ammo ular o’ziga dugona, o’yinda sherikni saralab tanlaydi va shuning uchun ham ular orasidagi munosabatlar ancha do’stona bo’ladi. Tadqiqot xulosalariga ko’ra o’g’il bolalar kichik yoshdan ekstensiv muloqotga qiz bolalar esa intensiv muloqotga intiladilar.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, jinslar o’rtasidagi va jinslararo munosabatlarning murakkabligi shundaki, ba’zan sinf jamoasida qarama-qarshi jinslardan iborat bir necha guruhlar paydo bo’ladi va bu psixologik

iqlimga salbiy ta’sir etadi. Chunki bunday vaziyatda turli jinsdagi guruhlar o’rtasida nizolar kelib chiqishi mumkin.

D.I. Umanskiy tomonidan bu muammo bo’yicha tadqiqot shplari olib borilgan. Uning fikricha, sinf jamoasidagi o’zaro munosabatlarning mustahkam bo’lishi uchun maqsadlar, motivlar, qadriyatlar va guruh a’zolari ahlok me’yorlarning «yo’nalishi»da yaqinlik bo’lishi kerak .

